

## USTKI KIYIM ASOSIY DETALLARIGA ISHLOV BERISH USULLARI

**Jamolliddinova Maxbuba Sotvoldiyevna**

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi Ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ustki kiyim asosiy detallariga ishlov berish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustki kiyim, asosiy detallariga ishlov berish, usullar.

Ustki kiyim mayda detallari va uzellariga ishlov berish usullari.


Vitochkalarni, koketkalarini tikish, kesimga, taxlama, relief va detal qirqimlariga ishlov berish. Mustaqil tanlangan modelning asosiy detallariga ishlov berishning texnologik ketma-ketligini tuzish va jadval shaklida to'ldirish Kiyim mayda detallari, kiyimga dastlabki ishlov berish, koketka, band, listochka Qopqoq cho'ntakning detali bo'lib, u cho'ntak og'zini berkitib turish va kiyim bezagi vazifasini bajaradi.

Cho'ntak qopqoq avra gazlamadan, ostki qopqoq astarlik gazlamadan bichiladi.

Cho'ntak qopqoq avrasining uzunligi cho'ntak og'zi qirqimi uzunligiga yon va pastki qirqimlari bo'ylab 0,7 sm, yuqori qirqimi bo'ylab 1,5 smga teng bo'ladi. Astarining tanda (o'rish) ipi detalning uzunasi yo'nalishida bo'ladi, bu esa cho'ntak qopqoqni cho'zilib ketishdan saqlaydi. Ostki cho'ntak qopqoq yon va pastki tomonlari bo'ylab avraga nisbatan 0,2-0,3 sm torroq qilib bichiladi.

Universal mashinada tikishdan oldin avra bilan astarning o'ng tmonlari bir-biriga qaratib qo'yiladi, qirqimlar to'g'rilanadi va avra tomondan to'g'ri sirma qaviq bilan, burchaklarda solqi hosil qilib biriktirib ko'klanadi. Cho'ntak qopqoq astar tomondan 0,5 sm kenglikdagi ag'darma chok bilan tikiladi, ko'klangan ip olib tashlanadi. Cho'ntak qopqoq uchlari qalinlashib qolmasligi uchun burchaklarida chok haqi 0,2-0,3 sm qoldirib kesib tashlanadi. Cho'ntak qopqoq o'ngiga


ag'dariladi va burchaklari to'g'rilanadi. Cho'ntak qopqoq avarsidan 0,2 sm ziy hosil qilib qiya qaviq solib yoki maxsus mashinada ko'klanadi. Cho'ntak qopqoq pressda ostki qopqoq tomondan dazmollanadi.



Cho'ntak qopqoq yarim avtomat mashinada tikilsa, avra va astar qopqoq detallarining chetlarini ichkari tomonga bukib, avradan ziy hosil qilib bostirib tikiladi.




Belbog'ni tikishda gazlamaning o'ngi ichkariga qaratib buklanadi. Uzunasiga chok solinadi. Chokni o'rtaga to'g'rilab, belbog'ning uchiga ag'darma chok tushadigan chiziqni belgilab olinadi. Shu chiziq bo'ylab ag'darma chok o'tkaziladi. Belbog'ning uchi 0,3 sm chok qoldirib qirqib tashlanadi. Maxsus moslama yordamida belbog' o'ngiga ag'darib dazmollanadi.




Ayollar va erkaklar ustki kiyimida vitochkalarga ishlov berish. Vitochkalar: yaxlit va qirqma bo'ladi. Ishlov berishdan oldin detalga andoza yordamida vitochka o'rne belgilanadi.

Qirqma vitochkalar belgilangan chiziq bo'ylab 0,7-1sm kengligida biriktirib tikiladi. Chok tobora ensizlanib yo'q bo'lib ketadi. Vitochka yorib dazmollanadi.



Yaxlit vitochkalar ularning yon tomonlari belgilab qo'yilgan chiziq bo'ylab tikiladi. Bahyaqator vitochka uchi tomon ensizlana borib, uchiga etganda yo'q bo'lib ketadi. Yaxlit vitochkalarining tagiga avradan qo'shimcha gazlama qo'yib, yoki avra bilan bir xil qalinlikda boshqa qo'shimcha gazlama qo'yib yoki

qo'shimcha gazlama qo'ymay tikiladi. Yaxlit vitochkalarining choki esa modelda ko'zda tutilganiga qarab, bir tomonga yetkazib yoki yorib dazmollanadi.



Mustaqil tanlangan modelning asosiy detallariga ishlov berishning texnologik ketma-ketligi tuzishladi va jadval shaklida to'ldiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nabiyeva. G. A. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari. Scientific progress, 7(5).
2. V. Yo'ldasheva, S. Usmonova, F. Jumaboeva. Pedagogika texnologiya asoslari. O'quv qo'llanma. - T. 2004. - 140 bet
3. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995
4. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
6. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
7. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.